

DAVLAT BUDGETI DAROMADLARI SHAKLLANISHIDA SOLIQLARNING ROLI VA IQTISODIY TAHLILI

**Toshkent moliya instituti
I-5 magistranti Xamidov Shukrullo**

Davlatimiz xazinasini moliyaviy resurslar bilan to`ldiruvchi asosiy manba soliq bo`lgani sababli, u jamiyatimiz oldida turgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ma`naviy, ma`rifiy va boshqa ko`pgina vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan miqdordagi pul mablag`i bilan ta/minlanishi lozim. soliqlar davlat budgetini toldiruvchi asosiy elementlardan biri bo`lib hisoblanadi. shuning uchun soliqlarga davlat budgetining daromad qismini shakllantiruvchi, eng muhim bo`lgan umumdavlat vazifalarini hal etish uchun zarur miqdordagi mablag`ni jamlantiruvchi dastak sifatida qarash lozimdir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-soni “O`zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida¹gi farmoni belgilandi. Unga ko`ra 100 ta maqsad va 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilab olindi. Strategiyaning 46 maqsadida quyidagilar nazarda tutildi: Konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo‘lgan miqdorda bo‘lishini ta’minalash. “Natijaga yo‘naltirilgan budgetlashtirish” amaliyotiga o‘tish. “Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo‘srimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish. Markirovkalash va raqamlashtirish tizimi samarasini oshirish va kengaytirish orqali soliq ma’murchiligi tizimining samaradorligini yanada oshirish.

Davlat budgeti davlatning yirik markazlashgan pul fondi bo‘lib, davlatning funksiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. budget so‘zi g‘azna ma’nosini bildirar ekan, uning mohiyati ham davlatning qo‘lida markazlashtirilgan pul jamg‘armalarining tashkil etilishi va davlatning siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. davlat budgeti moliya tizimi hamda davlat moliya bo‘g‘inining asosiy qismidir. o‘zbekiston respublikasining budget kodeksiga asosan davlat budgetiga quyidagicha tarif berilgan: “davlat budgeti - davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”.

Demak, soliq tushumlari davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solishning samarali vositasi hisoblanadi. Davlatning o‘ziga yuklangan vazifalarni, ya’ni mudofaa qobiliyatini, ichki tartibni va aholining ijtimoiy xavfsizligini ta’minalashni samarali bajarish qobiliyati soliq tushumlari miqdoriga bog‘liq.

Davlatlar va mahalliy byudjetlar a’zolari daromadlarida soliqlarning ulushi ancha kam. Bu byudjetlar qat’iy (o‘z) va tartibga soluvchi daromadlar hisobidan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-soni

shakllantiriladi. Soliqlar manbai milliy daromad hisoblanadi. Milliy daromadning birlamchi taqsimoti soliqlar muhim o'rin tutadigan ikkilamchi taqsimot yoki qayta taqsimlash bilan to'ldiriladi. Yangi qiymatni qayta taqsimlash jarayonida ishtirok etuvchi soliqlar takror ishlab chiqarishning yagona jarayonining bir qismi, ularning ijtimoiy mazmunini tashkil etuvchi ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shaklidir. Turli darajadagi byudjetlarning daromad qismida soliqlar salmoqli ulushga ega. Soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlarga va budgetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazish O'zbekiston Respublikasining soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlari tizimida, shuningdek soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

Quyida respublika bo'yicha 2023-yil davomida soliq organlarining budgetga tushumlari to'g'risida soliq turlari kesimida² 2023-yil 1-noyabr holatiga kora tahlilini ko'rishimiz mumkin:

Nº	Soliq turlari nomi	Yil boshidan tushum
	Respublika bo'yicha jami	132 877,1
	shu jumladan:	
I.	Soliq turlari bo'yicha	119 494,4
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	27 075,5
2	Aksiz solig'i	11 582,6
3	Foya solig'i	32 182,8
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	24 011,4
5	Aylanmadan olinadigan soliq	1 918,5
6	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	12 550,6
7	Mol-mulk solig'i	4 165,7
8	Yer solig'i	5 405,2
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	602,1
II.	Soliqsiz tushumlar	13 382,7
III.	Ijtimoiy soliq	32 171,2

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2023 yill 1 noyabr xolatiga ko'ra respublika bo'yicha jami 132 877,1 mlrd so'mni tashkil qilmoqda bu 2023 yil

² <https://soliq.uz/other/open-portal> sayti ochiq malumotlari

uchun mo'ljallangan budjet parametrlarida ko'rsatilgan tushumning deyarli 76 foizini tashkil qilmoqda.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, respublikamizda soliq siyosati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan ishlab shiqiladi va amalga oshiriladi. Soliqlar bo`yisha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo`lib, ularning har biri o`z faoliyatlarini samarali olib borishda ushbu vakolatlardan foydalanadi. Bunda vakolatli organlar sifatida barsha hokimiyat organlari, jumladan, qonun shiqaruvshi, ijro etuvshi va sud hokimiyatlari birgalikda faoliyat ko`rsatadi va unda Davlat soliq qo`mitasi soliq siyosatini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan vazifalarni bajaradi.